



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

- Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONOULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zukumor MIRZAYEVA
Qo'zqo'yo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyta MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@ramail.uz
web-sayt: www.tilvadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'qosi nazorati mavjud kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblashi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'yilmalar taqdir qilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biometroning. 2022.25.06. da topshirildi. O'fset ushida chop etildi. Oq'ov bichimi 60x8418. Shardi bosma taboqi 6,0. «Katalo» garniturasi. 10, 11 kepl. «ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ boshqaruvida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayurtima Adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan tarafdin.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

REPUBLIKANING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПЕРИОДАВАЖИТЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda 2
DOLZARB MASALA

Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komillik belgisi 7
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Feruz Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi 7
Sarvinoz Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari 11
Tojixon Sahitova. Maqolalar badiiyatiga doir 12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi 14

TAHLIL

Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari 16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya 18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida arab yaratish mahorati 20
Umida Shermatova. Tabiiqlashtirilgan adabiyot ta'limida binar nu'uz a metodi 22
O'tkir Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behalo ma'naviy boylik 22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini – shoirning asl dardi 24
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi 28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni 30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qiyralari 32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-epizod tahlili 34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar 36
Gulshodxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari 38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir 40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari 42

TADQIQOT

Hoshimjon Quchoqorov. Tarjimon, tarjima va matn 44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari 46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi 49
Arofotiy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvaffaqiyatli san'ati 51
Mohibul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obraz talqini 53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samiyatning teran badiiy ifodasi 55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqning o'stirish yo'llari va vazifalari 58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari 60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar 63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lig' qalbar kuychisi 65

KICHIK TADQIQOT

Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lekksiasidagi o'zlashma so'zlar 67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati 69
Xosiyat Abdug'ahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi 70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyoziyning ashularida xotin-qizlar mavzusi 72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi? 73
Nodira Xoliqova. Millat va jamiyatning bosiri in'ikosi 76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – xamsa" metodidan foydalanish usullari 78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ – KOMILLIK BELGISI

Insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida ona tili favqulodda muhimdir. Til - ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning mukammal va xira tortmas ko'zgusi bo'lib, hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziyati, go'zalligi uning tilidadir" deyilgan.

Barcha zamonalarda har bir millat va elatning o'z tiliga hurmati va mehri buyuk bo'lgan. O'z tilining sehididan betakror huzurlanib, bu nodir boylikni dunyolaraga alishmagan. Chunki til millatning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O'zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimov: "Ona tili - bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar", -degan fikrlarida millatning borligi va birligini bosh belgisi ona tili ekanligi ta'kidlangan.

Mamlakatimizda ma'naviyat jabhasidagi benihoya keng qamrovi islohotlarda til muammolari, xususan, ona tilga e'tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlari, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» va boshqa ko'plab hujjatlarida islohotlar ko'rsatib berilgan. Ona tiliga chinakam sohib bo'lish uchun, uning bor imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikri mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifodalashdan iborat nutqiy madaniyatni malakalarini shakllantirmoq lozimdir. Zotan, tilga e'tiborni maktab partalaridan boshlamoq, nutq madaniyatini shakllantirishda fanning barcha bosqichlaridan unumli foydalanmoq zarur. Buning uchun og'zaki nutqni to'g'ri, ravon, mantiqli va madaniyatli bo'lib shakllanishi, yozma nutqni rivojlantirish kerak. Chunki, yozma nutqda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni tuzatish oson bo'lib, o'qituvchilar tomonidan nazorat qilishga ham imkoniyatlar ko'p.

Yozma nutq og'zaki nutqqa nibatan, o'quvchini ko'proq mehnat qildirib fikrlatadi, natijada tafakkur rivojiga ta'sir etadi. O'quvchining o'ziga ishonchi, mustaqil dunyoqarashi kengayadi. Fikrlashda erkinlik, samimiylik, intellektual o'sish ko'zga tashlanadi. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholay olish ko'nikmasi shakllanadi. Shuni ham ta'kidlamok lozimki, "sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va tumush tarziga turli kinishda kinb borgan.

Qadimiy Turonda sivilizatsiya axloqqa kuchli e'tibor bilan hamohang qanot yoygan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat'i nazar, barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va yetuklik, adolat, insof, diyanat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan".

Xalqimizda axloq serqirra, mag'zi shirin va bahosi yo'q qardriyat bo'lib, qadimdan insoniylik, mehr-oqibat, ma'naviyat va osoyishtalikning asosiy omili bo'lgan. Semma'no va latif gapirish, nutqdagi noqisliklarni ilg'ay olish, so'zning ta'sirini farqlash, so'z o'rni, nutqiy nafosat, ulohazali nozik nutq odobi kabi fazilatlar inson axloqining, ma'naviy to'kisligining o'q idizlari deb bilgan ajdodlarimiz, so'z sezgisini inson komilligini ta'minlovchi me'yorga tenglashtirgan. Aziziddin Nasafiy "Komil inson" nomli kitobida yozadi: "*Bilgiki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi – yaxshi so'z, ikkinchisi – ezgu faoliyat, uchinchisi – go'zal axloq, to'rtinchisi – ilm*".²

"Qobusnoma"da Kaykovus farzandiga shunday o'git beradi: "*Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang, yuzi bila degil, to'xung'o'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'li derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas. Suxung'o'y shul kishi bo'lg'ayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa, unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg'ay, yo'q ersa, ul inson suratida mavjud bo'lg'on bir hayvondur*".³

Olam ahlini hayratga tushishga majbur qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari mo'tabar zotlar nutqning inson hayotidagi ahamiyatini ko'plab asarlarida ta'kidlab o'tganlar. Masalan, "Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri"da fozillikning asosiy xususiyatlaridan quvvai notiq (nutq quvvati)ni ta'riflab, inson dunyoga kelishi bilan o'zini boqadigan quvvatga ega bo'lishi va bu g'izolantiruvchi quvvat sanalib, keyinchalik inson o'z takomili yo'lida turli quvvatlarni qo'lga kiritishini aytadi. Masalan, mutoxayyila quvvati (xayol qilish, umumlashgan obrazlar yaratish), aql quvvati va boshqalar. Insonning olamni bilish jarayonida notiq quvvatining xizmati katta ekanligini ta'kidlaydi".⁴

Qomusiy buyuk olimlarimizdan Ibn Sino inson barcha mavjudotdan aqli va tili bilan ustunligini, shuning uchun insonning eng barkamoli – oqil va so'zga chechani ekanligini aytadi.⁵

Turkiy so'z xazinasidan javohirlar kashf qilgan bobomiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "Odobning boshi tildir" degan maqol bor. Ulug' alloma Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" dostonida

"til ardami"(til odobi) haqida bir qancha go'zal hikmatlar mavjud:

"So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin".

"Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi, Nodonning so'zi o'z boshini eydi".

"Ahl ko'rki so'zdir va til ko'rki so'z, Kishi ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki ko'z."

"Tug'ilgan o'ladi, ko'r, nom-nishonsiz qoladi,

So'zingni ezgu so'zla, o'zing abad o'lmayсан."

Yusuf Xos Hojibning dunyoqarashi va falsafasida Forbiy, Ibn Sinolar dunyoqarashi va falsafalarining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobomiz bilim, zakovat sohibi bo'lishning asosiy kaliti tildir, til tufayli kishi o'z ilmi, aql-idroki, zakovatiga jilo beradi, fikrini ravshan qiladi hamda til, so'z kishining qadr- qimmatini oshiradi, ulug'likka eltadi degan manguliklik daxldor fikrlarini yozib qoldiradi. Ammo so'zni o'ylab, bilib, kezi kelgandagina so'zlash kerak, shundagina til va so'zning nafiduda katta bo'ladi, o'ylanmay so'zlasa, so'z kishi qadri-ni tushiradi, uni el e'tibordan qoldiradi, shuning uchun oz, lekin soz so'zlash dardkor deydi:

"Zakovat, bilimga kalitdir bu til, Yurutguvchi emi ravon tilni bil. Kishin til ulug'lar, topar qut kishi, Kishin til tubanlar, yorilar boshi. Kishi so'zla ulg'aydi, bo'ldi malik, Talay boshni so'z qildi yerga egik. Bilimli so'zin sen eshit, ozlama, So'ramasdan oldin so'zing so'zla. Talay so'zlama so'z, bir oz so'zla oz, Talay so'z chigilin shu oz so'zda yoz"⁶.

Leकिन bilimli, zakovatli bo'lishning o'zigina kifoya qilmaydi, avvalo kishi ezgu bo'lishi, barchaga nisbatan yaxshi muomalada, hushxul bo'lishi kerak, shundagina xalq sevadi, qadrlaydi degan bebaho fikrlarni aytib ketgan. Hatto inson tilini qafasda yotgan arslonga o'xshatadi va ehtiyot bo'lmasang qafasdagi makkor boshingni yeydi, deya ta'sirli o'xshatishlar berib ketadi.



Sohibqiron bobomiz Amir Temur yozma nutqda aniqlik va to'g'rilikka katta ahamiyat bergan va barchadan ifodaviylikni talab qilgan. "Tarixchi Nizomiddin Shomiyning aytishicha, Amir Temur hayoti va faoliyati haqida yozilganlarni saralab, bobma-bob tartib berib, kitob qilishni buyuradi. "Lekin shu shart bilan-ki, - deydi Amir Temur, - takalluf-u bezak berish, lof urish, mubolag'a qilish bo'lmasin, maqsad nimaligini o'qigan odam yaxshi tushunsin". Banda (Nizomiddin) yer o'pib, arz qildim: "...Olimlar maqbul so'z haqida shunday deganlar: "Yaxshi so'z uldirkim, avom xalq uning ma'nosini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo'ymagay... Bayt:

Gar iste'dod bo'lmasa, hech kim aytolmas,
Xosga maqbulu omma tushungudek so'zni.

Amir Sohobqiron "Men ana o'shandoq so'zni xohlayman" dedilar.

Amir Temur arab olimi Ibn Xaldunga O'rta Yer dengizining janubiy qirg'og'idagi yerlar haqida yozib berishni topshirganida ham "Shunday yozginki, men o'qiganda o'sha joylarni o'z ko'zim bilan ko'rganday bo'lay deb tayinlagan..."⁷.

Har qanday jamiyatning taqdiri undagi sog'lom ma'naviyatli, pok ruhiyatli insonlarga bog'liqligini ajdodlarimiz teran nigohlari ila ilg'ay olganlar. Shu nuqtai nazarga asoslanib ham o'zlariga, ham o'zgalarga talabchan munosabatda bo'lganlar. Avlodlar tarbiyasida ularning nutuqiy savodxonligiga jiddiy e'tibor berganlar. Bugungi kunda ham yoshlarimizni chin insoniy ma'naviyatga yo'g'rilgan, barkamol qilib tarbiyalash yil sayin dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.

1. Жўраев Н. Агар оғоҳ сен... Тошкент: Езувчи, 1998, 106 - 107-бетлар.

2. Ҳақул И. Навоийни англаш машаққати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 141, 5-бет.

3. Қўбсунома, 34-бет.

4. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. 1-қисм. Тошкент: Камолот-Қатортол, 2000, 8-бет.

5. Рустамий Алишбег. Адиблар одобидан адаблар. Тошкент: Маънавият, 2003, 12-бет.